

TIJORAT BANKLARIDA MOLIYAVIY HISOBOTLARNI TUZISH VA TAQDIM ETISH TARTIBI

Obloqulov Alisher Bahodir o'g'li

O'zbekiston Respublikasi Bank Moliya Akademiyasi

MSc BIA 23-37 guruh magistratura tinglovchisi

Ilmiy rahbar, i.f.d., prof. K.Xotamov

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Annotatsiya: Ushbu maqolada tijorat banklarida moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlarga transformatsiya qilish, unga muvofiqligi masalalari ustuvor vazifa sifatida ko'rib chiqiladi, tijorat banklarida MHXS ga muvofiq moliyaviy hisobotni transformatsiyasining zarurati va roli, xususan, malakatga chet ellik investorlarni jalb qilish uchun zarur bo'lgan chora-tadbirlar, mamlakatning investitsion jozibadorligini ko'rsatib beruvchi richaglarga e'tibor qaratilmoqda, uning amaliyotda qo'llanilishi va moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlariga o'tishdagi muammolar va ularni bartaraf etish yo'llari haqida fikir yuritilgan.

Kalit so'zlar: Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari, transformatsiya, tijorat banklari, hisobotlar, tamoillar va investorlar.

O'zbekiston iqtisodiyoti modernizatsiyasi, barqaror iqtisodiyot va jahon mamlakatlari bilan xalqaro hamkorlik masalalari O'zbekistonning iqtisodiyotini yanada rivojlantirish, barqaror iqtisodiyotni ta'minlash, va jahon mamlakatlari bilan o'zaro xalqaro hamkorlikni rivojlantirish uchun bir qator qadam va reformalarni o'tkazishni o'z ichiga olgan strategik masalalardir.

O'zbekiston mustaqillik davrining boshlang'ich yillarida ishlab chiqarishning tanqidiy-tahliliy tizimini o'zgartirishga yo'naltirilgan. 2017 yilida prezident Shavkat Mirziyoyevning rahbarlik qilishida keyingi moliyaviy reformalar amalga oshirilmoqda. Bu reformalar, moliyaviy tizimni iqtisodiyotni yangilash, investitsiyalar olinishini oshirish, korrupsiyaga qarshi kurashish, tadbirkorlik faoliyatini olib borish va xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish yo'nalishida amalga oshirilmoqda. O'zbekiston davlati, mamlakatning iqtisodiyotini rivojlantirish maqsadida katta miqdorda investitsiyalar qo'shmoqda. Yuridik muhitni osonlashtirish, investitsiya qabul qilishni osonlashtirish va investitsiyalarni jalb qilish uchun qo'shimcha imtiyozlar tuzilmoqda. Infrastrukturaning rivojlantirish, transport tarmoqlarini oshirish va mamlakatni tashqi savdo uchun yaxshi o'ramoqqa solish uchun keng tajribali loyihalarga e'tibor qaratilmoqda.

Keyingi yillarda tashqi savdo sohasi davlatimiz iqtisodiy rivojlanishining muhim shakllaridan biriga aylandi. Bu ishlab chiqarishni kengaytirish va modernizatsiya qilish, iste'mol tovarlari ishlab chiqarish va turli xizmatlar ko'rsatishga xizmat

qilmoqda. Ko‘pincha eksportga yo‘naltirilgan Yevropadagi Germaniya yoki Osiyodagi Xitoy kabi ilg‘or xorijiy mamlakatlar tajribasi shuni ko‘rsatadiki, aynan tashqi savdo davlatning iqtisodiy rivojlanishining dvigateliga aylanishi mumkin.

Tijorat banki – korxonalar, tashkilotlar, fuqarolarga universal bank xizmatlari (hisob-kitob, to‘lov operatsiyalari, qo‘yilmalarni jalb etish, omonatlarni saqlash, ssudalar berish, shuningdek, qimmatli qog‘ozlar bozoridagi operatsiyalar) ko‘rsatadigan yirik kredit muassasasi. Tijorat banki bank harakatlarini amalga oshirish uchun pul mablag‘larini, asosan, qo‘yilmalar (omonatlar), banklararo kreditlar, o‘z aksiya va obligatsiyalarini chiqarish hisobiga shakllantiradi. O‘zbekistonda dastlabki tijorat banklari Rossiya O‘rta Osiyoni bosib olganidan keyin, 19-asr oxirlarida rus kapitali ishtirokida paydo bo‘lgan va 1917-yildagi Oktyabr to‘ntarishiga qadar faoliyat ko‘rsatgan. 20-asrning 90-yillari boshidan, mustaqillikdan keyin respublikada Tijorat bankilari qayta paydo bo‘ldi.

O‘zbekistonda Markaziy bank Tijorat banki faoliyati uchun litsenziya beradi va uning ishini nazorat qiladi. Tijorat banklari mulkchilikning turli shakllari asosida – davlat ishtirokidagi, davlat aksiyadorlik, ochiq va yopiq aksiyadorlik jamiyatlari tarzida tashkil etilgan. Respublika hududida 33 ta Tijorat banki, faoliyat ko‘rsatadi (2003). Ulardan 2 tasi davlat banki, 3 tasi davlat aksiyadorlik Tijorat banki 12 tasi xususiy bank, 4 tasi chet el kapitali ishtirokidagi banklar va 1 tasi sho‘ba bankdir. Mazkur banklarning respublika hududida faoliyat ko‘rsatayotgan 800 dan ortiq, filiallari va 690 dan ortiq minibanklari bor. Respublikada 7 chet el Tijorat bankilari, 4 xalqaro moliya tashkilotlarining vakolatxonalarini faoliyat ko‘rsatadi. Tijorat banki faoliyati O‘zbekiston Respublikasining „Banklar va bank faoliyati to‘g‘risida“ qonuniga muvofiq tartibga solinadi.

Moliyaviy hisob yordamida mavjud moddiy qiymatliklar, pul mablag‘larining harakati kuzatiladi va nazorat qilinadi, mahsulot ishlab chiqarish va uni sotish bilan bog‘liq xarajatlar aniqlanadi, xo‘jalik faoliyatining moliyaviy natijalari va korxonaning umumiy mulki haqidagi ma‘lumotlar topiladi.

Moliyaviy hisob har qanday tizimda ham quyidagi uchta funktsiyani bajaradi:

- 1) axborot berish;
- 2) nazorat qilish;
- 3) boshqaruv echimlarini ishlab chiqish.

Bu funktsiyalarni bajarishda moliyaviy hisob har xil usullardan foydalanishi mumkin. Shuningdek, moliya hisobi har xil ijtimoiy tizimlarda muayyan tizimning maqsadiga qarab har xil vazifalarni bajarishi mumkin.

Moliyaviy hisobning asosiy vazifalarini tushunib olish uchun uning ob‘ektlarini bilib olish lozim bo‘ladi. Ushbu ob‘ektlar quyidagi 4 ta guruhdan tashkil topgan:

1. Korxonalar mablag‘ (resurs)lari: mehnat vositalari, tovar-moddiy boyliklar, pul mablag‘lari, tayyor mahsulot, ustav fondi (kapitali), boshqa har xil fondlar, kelgusidagi xarajatlar va to‘lovlar rezervi, korxonalar foydasi hisobidan tashkil

qilingan har xil zaxira va hakoza. Bu mablag'lar korxonaning ishlab chiqarish jarayoni uchun tegishli sharoit yaratib beradi.

2. Korxonalarda sodir bo'layotgan muhim jarayonlar: tovar –moddiy boyliklarni tayyorlash, mahsulot ishlab chiqarish, tayyor mahsulot, bajarilgan ish va xizmatlar realizatsiyasi, kapital qurilish va boshqa jarayonlar.

3. Hisoblashish muomalalari: byudjet, mol etkazib beruvchi va pudratchilar, xaridorlar, ishchi va xizmatchilar, davlat banki va boshqa banklar hamda boshqa tashkilot va shaxslar bilan hisoblashishlar.

4. Korxonalar xo'jalik faoliyatining moliyaviy natijalari: jamoaning daromadi, foyda va zararlari.

O'zbekistonda konsolidatsiyalangan hisobotni tuzish O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi tomonidan 1998 yil 28 dekabrda 580-son bilan ro'yxatga olingan «Konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotlar va investitsiyalarni sho'ba xo'jalik jamiyatlarida hisobga olish» deb nomlangan 8-son O'zbekiston Respublikasi Buxgalteriya hisobi milliy standarti (BHMS) bilan tartibga solinadi. Mazkur BHMSga muvofiq konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotni bosh xo'jalik yurituvchi jamiyat nazoratida bo'lgan xo'jalik yurituvchi jamiyatlar tuzadi. Bunda nazorat deganda ular faoliyatidan foyda olish maqsadida xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning moliyaviy va xo'jalik siyosatini belgilash huquqi tushuniladi, bosh jamiyat tomonidan nazorat qilinadigan xo'jalik yurituvchi sub'ekt esa sho'ba xo'jalik yurituvchi sub'ekt (sho'ba korxonalar) deb nomlanadi. Ya'ni konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobot faqat bosh jamiyatda (asosiy kompaniyada), ular mulkchilik turidan va bosh jamiyatning tashkiliy-huquqiy shaklidan qat'iy nazar nazorat qilinadigan sho'ba korxonalar mavjud bo'lgandagina tuziladi.

Bunda yuridik jihatdan mustaqil har bir korxonalar, o'z operatsiyalarining buxgalteriya hisobini yuritishlari va ularning natijalarini alohida moliyaviy hisobot ko'rinishida rasmiylashtirishlari shart.

Umuman olganda konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotni tuzishda asosiy maqsad, soliq solinadigan foydani aniqlash emas, balki korporativ guruh faoliyati to'g'risida umumiy tasavvur olishdir.

Konsolidatsiyalangan balansda ham bosh korxonalar, ham sho'ba korxonaning moddiy qiymatliklari ko'rsatilgan bo'ladi. Xuddi shunday moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobotda «Sotish hajmi» moddasi ham bosh korxonalar, ham sho'ba korxonalar tomonidan amalga oshirilgan sotish hajmini o'z ichiga oladi.¹

O'zbekistonda bank tuzilmalarini jahondagi iqtisodiyoti rivojlangan mamlakatlar bank tizimlari qatoriga kirishini ta'minlash va bu sohada jahon amaliyoti

¹ Sh.Muzrapova "Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibi" "Tafakkur manzili" 2023 y. may 184 b.

yutuqlarini bevosita bank tizimi faoliyatiga qo'llash, jahon bank tizimidagi banklarning moliyaviy hisobotlarini tuzishning kontseptual va o'ziga xos asoslarini ishlab chiqarish va bank amaliyotiga qo'llash bevosita banklarning rivojlanishi va mustahkamlanishiga turtki bo'ladi. Shuni ta'kidlash joizki, so'ngi yillarda xorij sarmoyalarining sezilarli ravishda ortib borishi bank tizimiga bo'lgan ishonchning yana oshishidan dalolat bermoqda. Bu esa o'z navbatida tijorat banklarining turli potentsial foydalanuvchilarga taqdim etiladigan moliyaviy hisobotlarning sifat tavsifini va axborotlarning oshkoralik darajalarini yanada kuchaytirish lozimligini bildiradi va bunda jahon amaliyotida ishlab chiqarilgan moliyaviy hisobotlarning xalqaro standartlari (MHXS) ni qo'llash katta ahamiyat kasb etadi.

MHXS bo'yicha moliyaviy hisobot tuzish usullari quyidagilardan iborat:

1. parallel hisob yuritish;
2. moliyaviy hisobot transformatsiyasi.

Parallel hisob yuritish – bir vaqtning o'zida yuritilayotgan BHMS hisobi bilan birgalikda MHXS asosida hisob yuritish. Parallel hisob yuritish chog'ida har bir xo'jalik operatsiyasi ikki marta: BHMS bo'yicha hisob yuritish tizimida va MHXS bo'yicha hisob yuritish tizimida ro'yxatdan o'tkaziladi.

Hisobotni transformatsiya qilish chog'ida BHMS bo'yicha mavjud ma'lumotlar stornolanadi va ularning o'rniga MHXS bo'yicha hisob yuritish ma'lumotlari aks ettiriladi. Transformatsiya – hisob yuritishga doir axborotni qayta guruhlash va BHMS bo'yicha tayyorlangan hisobot moddalariga tuzatish kiritish yo'li bilan MHXSga muvofiq hisobot tuzish jarayoni.

Transformatsiya qilish usuli korxonaga uchun xarajatlarni tejash, kadrlar bilimini oshirish, shuningdek auditorlik tashkiloti va konsalting firmalar tomonidan amalga oshiriladi. Parallel hisobda malakaviy kadrlar yetishmasligi, buxgalteriya hisobini to'g'ridan to'g'ri xalqaro standartlarda yuritish imkoniyatini beradi.

«Balans asosida transformatsiya qilish» –BHMS bo'yicha moliyaviy hisobot shakllaridagi ma'lumotlar MHXS bo'yicha hisobotning tegishli shakllariga o'tkaziladi, bevosita MHXS bo'yicha hisobot satrlari darajasida tuzatishlar kiritiladi. Jarayonning avtomatlashtirilishi qo'llanilayotgan buxgalteriya dasturiga bog'liq emas. MHXS bo'yicha Schyotlar rejasini ishlab chiqish talab etilmaydi, tuzatishlar kiritish tizimining shaffofligi, MHXS bo'yicha hisobot darhol shakllantiriladi. «Balans asosida» yondashuvi katta bo'lmagan korxonalarining hisobotini transformatsiya qilish yoki «bir martalik» transformatsiya qilish chog'ida qo'llaniladi. Transformatsiya modeli-elektron jadvallar majmui, ularga BHMS bo'yicha buxgalteriya hisoboti ma'lumotlari, tuzatishlar va natijada olinadigan xalqaro hisobot ma'lumotlari kiritiladi. Transformatsiya jadvallari Excel dasturida yoki kompaniya uchun mos boshqa dasturda yaratiladi. Ular MHXS bo'yicha hisobotni shakllantirish maqsadida qilingan barcha o'tkazmalarni kuzatish imkonini beradi. Jadvallarning aniq tarkibi kompaniyaning faoliyat turiga, unda

yuritiladigan buxgalteriya hisobi, shuningdek bevosita hisobot transformatsiyasini tashkil etish darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Tijorat banklarida MHXSlariga istalgan paytda, tayyorgarliksiz, to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘tib bo‘lmaydi.²

Xulosa qilib aytganda, agarda tayyorgarliksiz moliyaviy hisobot MHXSlar bo‘yicha transformatsiya qilingan taqdirda ham kutilgan natijani bermaydi. Shu bois, MHXSlarni birinchi marta qo‘llashda yoki milliy standartlar asosida tuzilgan moliyaviy hisobotni transformatsiya qilishdan oldin muhit, shartsharoit va ma‘lum tayyorganlik ishlari olib borilishi shart. Biz bu omillarga quyidagilarni kiritishni maqsadga muvofiq, deb hisoblayman:

-mamlakat iqtisodiyotida yuqori inflyatsiya darajasi bo‘lmasligi kerak; -tijorat banklarida buxgalteriya hisobi milliy standartlari tizimi imkon qadar MHXSlariga uyg‘un bo‘lishini ta‘minlashimiz kerak. Agar o‘rtada tafovut katta bo‘lsa transformatsiya jarayoni qiyinlashadi, transformatsiya qilingan taqdirda ham kutilgan natijani bermaydi;

-tijorat banklarida buxgalteriya hisobini yuritish va moliyaviy hisobotni tuzish va taqdim etishda me‘yoriy huquqiy hujjat faqat Buxgalteriya hisobi to‘g‘risidagi qonun va buxgalteriya hisobi standartlari bo‘lishi kerak. Nizomlar, yo‘riqnomalar va qoidalarni ham bosqichma-bosqich standartlarga aylantirishimiz kerak;

-banklarda (foyda olishni maqsad qilib qo‘yishi va qo‘ymasligidan qat‘i buxgalteriya hisobi bo‘yicha alohida standartlarni bo‘lishini ko‘zda tutmasdan, balki yagona standartlar tizimini yaratishimiz kerak, qaysiki undagi qoidalar barcha turdagi banklarga bir xil mazmunda qo‘llanilishiga erishishimiz kerak;

-moliyaviy hisobotni taqdim etish valyutasini xalqaro standartlarga muvofiq erkin ravishda belgilash tartibiga o‘tish imkoniyatlari yaratilishi kerak;

-tijorat banklarida hisob siyosatini mukammallashtirish, uni moliyaviy hisobot tamoyillariga to‘liq rioya qilgan holda tuzilishi hamda chinakkam hisob loyihasi bo‘lishi, shuningdek tijorat banklarda xalqaro standartlar talablariga muvofiq ishchi schetlar rejasini ishlab chiqishga erishish va boshqa bir qator ishlarni amalga oshirish lozim, deb o‘ylayman.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldagi 4611-son “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o‘tish bo‘yicha qo‘shimcha choratadbirlar to‘g‘risida”gi qarori

2.Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti Moliyaviy instrumentlar (IFRS 9 – International Financial Reporting Standart). IFRS Foundation 2022

3.Norbekov D.E. Ochilov I.K. “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari” O‘quv-uslubiy majmua. –Toshkent:,2019. –416 b.

² Norbekov D.E. Ochilov I.K. “Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari” O‘quv-uslubiy majmua. –Toshkent:,2019. –416 b.

4.Norbekov D.E., To'raev A.N., Raxmonov Sh.Sh. Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari. O'quv qo'llanma. –Toshkent: “Iqtisod-moliya, 2022y. -329 b.

5.Sh.Muzrapova “Moliyaviy hisobotlarni xalqaro standartlari asosida moliyaviy hisobotlarni tuzish tartibi“ “Tafakkur manzili” 2023 y. may 184 b.